



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko'chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: [www.tma.uz](http://www.tma.uz), e-mail: [info@tma.uz](mailto:info@tma.uz)

2024 yil "11" dekabr  
249-son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining  
4-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«27» noyabr 2024-yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a'zolari  
(ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

1. 2-son Davolash fakulteti hisoboti.

**Ma'ruzachi** – 2-son Davolash fakulteti dekani Irnazarov Akmal Abdullayevich.

2. Magistratura va Klinik ordinatura bo'limining hisoboti.

**Ma'ruzachi** – Magistratura va Klinik ordinatura bo'limi boshlig'i Imamov  
Abduraxmon Abduganievich.

3. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma'ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya, o'quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot  
ishlar natijalarini amaliyatga tatbig'ini tasdiqlash..

**Ma'ruzachi** – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy  
tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i  
Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

## **QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "2-Davolash fakulteti hisoboti" mavzusi bo'yicha 2-davolash fakulteti dekani Irnazarov Akmal Abdullayevichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Fakultet kafedralarida o'quv jarayonini sifatini oshirishmaqsadida barcha kafedra majlislarida fanlar bo'yicha talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari muntazam ravishda muhokama qilinishi va kerakli chora ko'riliishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili davomida.**

1.2. Fakultet kafedralarida barcha talabalar tomonidan "Odob-axloq qoidalari"ga rivoja qilishlari nazoratga olinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili davomida.**

1.3. Fakultet kafedralarida talabalar bilan individual ravishda ishslash, iqtidorlilarni saralash, barcha talabalarni o'qitishda motivatsiya usullarini qo'llash keng tadbiq etilishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili davomida.**

1.4. Barcha fakultet kafedralarida mustaqil ta'limni bosqichma bosqich takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rilsin.

**Mas'ul: O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili davomida.**

1.5. Barcha kafedralarda o'quv jarayonini zamonaviy darajada va xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda sifatini ko'tarish maqsadida o'quv reja, dasturlarni, amaliy ko'nikmalarni hamda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llanadigan prezentatsiya, audio-video-mahsulotlarni va tarqatma materiallarni yangilanishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, 2-sod Davolash fakulteti dekanasi A.A.Irnazarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili, dekabr-yanvar.**

1.6. Barcha kafedralarda "Ustoz-shogird" tizimi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin, jumladan, yosh pedagoglarni tajribali pedagoglarga biriktirilishi va ularni nazorat qilinishi muntazam ravishda olib borilishi, "Yosh pedagog"lar maktabining faoliyatiga kafedra mudirlari tomonidan e'tibor kuchaytirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, 2-sod Davolash fakulteti dekanasi A.A.Irnazarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili davomida.**

1.7. Qo'shimcha qabul qilingan va boshqa OTMlardan o'qishi ko'chirilgan talabalarning o'zlashtirishini kafedra va dekanat bilan hamkorlikda nazorat va monitoringi olib borilishi ta'minlansin, shuningdek, xavf guruhini tashkil etgan talabalar bilan alohida yondashuv asosida (qo'shimcha fakultativ darslar, boshqacha yondashuv va h.k.) olib borilishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025- o'quv yili davomida.**

1.8. Barcha kafedralarda o'quv va ilmiy mahsulotlari past bo'lgan kafedralalar alohida nazoratga olinishi hamda yil yakuni bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan professor-o'qituvchining rag'batlantirilishi masalasi qayta ko'rib chiqilishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o'quv yili davomida.**

1.9. Barcha kafedralarda talabalarni ilmiy ishlarga jalb qilinishi hamda kafedralardagi ilmiy to'garaklarda, shuningdek nufuzli Xorijiy va Respublika miqyosidagi tanlovlarda ishtirok etishlari kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025- o'quv yili davomida.**

1.10. Akademianing barcha professor-o'qituvchilari HEMIS tizimiga o'quv-ilmiy faoliyatiga doir (ilmiy loyihalar, uslubiy va ilmiy nashrlar, intelektual mulklar va h.k) mahsulotlarini to'liq kiritishlari ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy-boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025- o'quv yili davomida.**

1.11. Barcha kafedralarda talabalar va pedagoglar tomonidan akademiya resurslaridan (Axborot resurslari, Simulyatsion markaz, Laboratoriya, Ingliz tili markazi, Lecturio, CyberPatient va boshqa) to'liq foydalanishlari ta'minlansin va kafedra mudirlarining nazoratiga olinsin.

**Mas'ul: Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025- o'quv yili davomida.**

1.12. Kafedralarda barcha muammolarni yechishda (etishmayotgan klinik bazalar, o'quv xonalar, pedagoglar, o'quv-uslubiy resurslar va boshqa) kafedra mudirlari tomonidan tezkor chora ko'rishlari ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: Kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025- o'quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi "Magistratura va klinik ordinatura bo'limining 2024-2025 o'quv yili bo'yicha hisoboti" mavzusi bo'yicha Magistratura va klinik ordinatura bo'limining boshlig'i Imamov Abduraxmon Abduganiyevichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Magistr-talabalarning zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash maqsadida xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda hamda bitiruvchilarning amaliyotlarini inobatga olgan holda barcha magistratura mutaxassisliklarida o‘quv reja, modul dasturlari, rotatsiyalar, amaliy ko‘nikmalar ro‘yxati va fan bo‘yicha testlar bazasi qayta ko‘rib chiqilishi hamda yangilanishi ta’minlansin.

**Mas’ul: O‘quv-uslubiy-boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, magistratura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2024-2025- o‘quv yili davomida.**

2.2. Magistr va klinik ordinatorlarni mutaxassisliklari va va chet tillarni bilish darajasini oshirish maqsadida ularni “Ingliz tili markazi” ga jalb etish, chet eldag'i nufuzli OTMlarda rejali stajirovkasini tashkil etish bo‘yicha ishlar jadallashtirilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2024-2025- o‘quv yili davomida.**

2.3.Kafedralarda bakalavriat talabalarini orasida magistratura mutaxassisliklariga kiradiganlarini seleksiya – ajratib olish va magistratura mutaxassisliklariga tayyorlanishi, shuningdek, bakalavr va magistr-talabalar orasidan iqtidorlilarni aniqlab, ular bilan alohida ish rejabo‘yicha nufuzli Xorijiy va Respublika tanlovlariga tayyorlash ishlari olib borilishi va ishtiroki ta’minlansin. Iqtidorli talabalarni Davlat hamda nomli stipendiyalariga tavsiya qilinishi, OTM hamda ilmiy markazlarda ish bilan ta’minlanishi Akademianing Iqtidorli talabalar bilan ishslash bo‘limi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov, Iqtidorli talabalar bilan ishslash bo‘limi boshlig‘i, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2024-2025- o‘quv yili davomida.**

2.4. O‘quv yili davomida magistr-talabalar orasidan iqtidorlilarni ajratib olib keyingi bosqich - doktoranturaga tayyorlash hamda Akademiya kafedralariga ishga olib qolish bo‘yicha ishlar olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov, kafedra mudirlari, dastur direktorlari.**

**Muddat: 2024-2025- o‘quv yili davomida.**

2.5.Magistraturaga kirish bo‘yicha kvotalari bajarilmagan va soni kam bo‘lgan mutaxassislik kafedralarining bitiruvchi talabalarini hamda amaliyotdagi yosh mutaxassislar bilan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ishlarni rejali tashkil qilinishi ta’minlansin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-2025-o‘quv yili davomida.**

2.6.Magistraturada mutaxassislik modullari bo‘yicha dars beruvchi professor-o‘qituvchilarni to‘liq ilmiy darajasi bor tajribali pedagoglar bilan shakllantirilishi

ta'minlansin.

**Mas'ul:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.

**Muddat:** 2024-2025-o'quv yili davomida.

2.7.Magistr-talabalarning dissertatsiya mavzulari Akademianing ilmiy-tadqiqot Biotibbiyot laboratoriyasi bilan hamkorlikda va imkoniyatlaridan foydalangan holda shakllantirilishi inobatga olinib amalda tasdiqlanishi ta'minlansin, shuningdek, dissertatsiya ishlariiga xorijlik mutaxassislarni ilmiy rahbarlikga jalb etilishi yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.

**Muddat:** 2024-2025- o'quv yili davomida.

2.8. Mutaxassislik kafedralari har yili o'quv yili oxirida kamida 10 ta bitiruvchi bakalavrni o'z mutaxassisliklari bo'yicha tayorlashi va ular to'g'risida hisobotni magistratura bo'limiga taqdim etishlari yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.

**Muddat:** 2024-2025- o'quv yili davomida.

2.9. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha dissertatsiya mavzulari bankini tashkil etish maqsadida mutaxassislik kafedralari har yili o'quv yili oxirida kamida 10 ta dissertatsiya mavzularini magistratura bo'limiga taqdim etishlari ta'minlansin.

**Mas'ul:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.

**Muddat:** 2024-2025 -o'quv yili davomida.

2.10. Barcha mutaxassisliklar bo'yicha magistr va klinik ordinatorlar tayorgarligi uchun kafedra mudirlari javobgarligi ta'kidlab o'tilsin, shuningdek, yutuqqa erishgan kafedralarni rag'batlantirish, salbiy ko'rsatkich mavjud kafedralarga choralar ko'riliши yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul:** Magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, kafedra mudirlari.

**Muddat:** 2024-2025 -o'quv yili davomida.

3.Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova 14.00.02 - Morfologiya ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Azizova Feruza Xusanovnadan, 14.00.05- Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Miraxmedova Xilola Tuxtasinovnadan, 14.00.01- akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Abdullaeva Lagiya Mirzatullaevnadan, dotsent ilmiy unvoniga 14.00.07 – Gigiena ixtisosligi bo'yicha Otajonov Ilxom Otaboevichdan, 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha Karimova Umida Nirmatovnadan, 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha Maxsudov Valijon Gafurjonovich nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari

bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya, o'quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig'ini tasdiqlash h" bo'yicha O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdilar (2- va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. **Turli masalalar** bo'yicha, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori J.J.Israilov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov so'zga chiqdilar.

5.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 06-noyabrdagi 4884-sodan Qaroriga binoan xorijiy fuqarolarni davlat oliv ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishni yilda ikki marta semestrning boshida tashkil etish belgilanganligi, Rahbariyat tomonidan O'zbekiston Respublikasi OTMlari uchun 2024-2025 o'quv yilda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish topshirig'i ijrosi yuzasidan bahorgi semester uchun chet-el fuqarolarini o'qishga qabul qilish ishlari keng amalga oshirilsin. O'qishga qabul qilish muddati 05-25 dekabr kunlari etib belgilansin. Shu bilan birga, Toshkent tibbiyot akademiyasining xalqaro e'tirofi keskin oshganligi, uning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda Akademiyada o'qish istagini bildirgan xorijiy fuqarolarning soni ortganligi munosabati bilan, yangi 2024/2025-o'quv yili bahorgi semesrti uchun Xalqaro fakultet qabuli uchun belgilangan kvota 400 nafargacha etib belgilansin.

5.2. Toshkent tibbiyot akademiyasining ingliz tilida tahsil oluvchi chet-ellik talabalari uchun "Elementarniy kurs russkogo yazyka" va "O'zbek tilining elementar kursi" nomli 24 -soatli o'quv dasturlari tasdiqlansin hamda "Til o'rgatish markazi"da ushbu kurs bo'yicha o'qitish ishlari yo'lga qo'yilsin.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-noyabrdagi xatiga binoan hamda joriy moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda Toshkent tibbiyot akademiyasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari bo'lgan quyidagi talabalarning 2024/25 o'quv yili uchun to'lov-kontrakt summasining qoldiq miqdori Toshkent tibbiyot akademiyasining budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplab berilsin:

- G'ofirjonov Hojiakbar Qodir o'g'li (AC 2510462, 51811036520028) 4- kurs Menejment yo'nalishi talabasi;
- Abdurazzoqov Humoyun Asqar o'g'li (AB 3319203, 50602006520028) 2-sod Davolash fakulteti.

**Mas'ul:Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov, Bosh buxgalter B.I.Alijanova, Registrar ofisi direktori F.Salohiddinov.**

**Muddat: 2024-yil dekabr oyidan boshlab.**

5.4. Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorining 2023-yil 2-fevraldag'i 23-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Toshkent tibbiyot akademiyasida kredit-modul tizimida tahsil olayotgan talabalar tomonidan qoldirilgan va o'zlashtirilmagan mashg'ulotlarni qayta topshirish tartibi"ga kiritilgan qo'shimchalar tasdiqlansin hamda professor-o'qituvchilar va talabalarga yetkazilsin. Ushbu tartib 2024-2025- o'quv yilining bahorgi semestridan joriy etilsin.

5.5. Toshkent tibbiyot akademiyasida Jamoatchilik kengashi tashkil etilsin va faoliyati yo'lga qo'yilsin. Jamoatchilik kengashi tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov.****Muddat: 2024-yil noyabr oyi.**

5.6. Akademiyada lavozim va unvonlarga xodimlarni o'tishi faqat lavozim va unvonlarga tavsiya etish xa'atining qaroriga binoan amalga oshirilishi ta'kidlab o'tilsin, bunda xodim 4 ta kuyidagi bosqichlardan o'tishi belgilanadi:

**1-bosqich. Kafedra mudiri bilan kelishish.**

Maqsad: Kafedra mudiri xodimning ilmiy unvon yoki lavozimga o'tishi haqida qarori.

*Jarayon:*

1. Xodim o'z maqsadini ko'rsatgan holda kafedra mudiri nomiga ariza bilan murojaat qiladi.
2. Kafedra mudiri xodimning ish natijalarini o'rganib chiqib, yozma rozilik (Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori nomiga ariza namuna asosida) (yoki asosli rad etish) beradi.
3. Kafedra mudiri rozi bo'lgan taqdirda ariza Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limiga yuboriladi.

**2-bosqich Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan xodimning ko'rsatkichlari tahlili** (5-ilovaga muvofiq).

Maqsad: Xodimning kasbiy yutuqlarini ilmiy unvon yoki lavozim talablariga muvofiqligini tekshirish.

*Jarayon:*

1. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi quyidagi jihatlarni tahlil qiladi:
  - Yil davomida o'quv, ilmiy va ma'muriy faoliyati uchun xodim tomonidan to'plangan ballar (belgilangan baholash tizimiga muvofiq);
2. Xodim tomonidan ichki reglamentlar va kasbiy standartlarga rioya qilinishi.
3. Tahlil yakunlari bo'yicha ariza ostiga xodimning yil yakuni bo'yicha to'plagan ballari ko'rsatilgan holda (asosini ko'rsatgan holda) shakllantiriladi hamda O'quv boshqarmasga, so'ng lavozim yokiunvonga tayinlash komissiyasiga topshiriladi.

**3-bosqich. O'quv boshqarmasi tomonidan shtat birligini tekshirish.**

Maqsad: Ilmiy unvon yoki lavozimga mos keladigan bo'sh ish o'rni mavjudligini aniqlash.

*Jarayon:*

1. O'quv boshqarmasi xodimning arizasini, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining tahlil yakunlarini oladi va malaka talablariga mos keladigan bo'sh shtat birligi mavjudligini tekshiradi.
2. Tekshirish natijalari (vakant o'rinning mavjudligi yoki mavjud emasligi) rasmiy hujjatda

qayd etiladi.

**4-bosqich. Lavozimga, unvonga va ishga olish Hay'atiningmuhokamasi.**

Maqsad: Xodim faoliyatiga yakuniy va xolisona baho berish.

*Jarayon:*

1. Hay'at taqdim etilgan materiallarni, shu jumladan:

- Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limining tavsiyasi;

- Xodim ishining yakuniy natijalari;

- Xodimning talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

2. Hay'at majlisida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

-xodimni tegishli lavozimga tayinlash yoki ilmiy unvon berish to'g'risida tavsifni shakllantirish;

-xodim tomonidan yetarli bo'lmagan ko'rsatkichlarni belgilangan muddat ichida qayta to'ldirib topshirishi;

-sabablarini asoslagan holda rad etish to'g'risida.

3. Hay'at qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi va Akademiya rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.**

**Rektor v.v.b.**



**Sh.A.Boymuradov**

*Ijrochi: G.A.Ismailova*

Tel. +998 97 461 80 41